

YUZ (JUZ) LAR HUNARMANDCHILIGINING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY JIHATLARI

Dulanov Otabek Yuldashevich

Tarix fakulteti jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Surxon vohasida istiqomat qiluvchi yuz (juz) aholisining qadimdan shug'ullanib kelgan hunarmandchilik sohasiga etibor qaratilgan. Bu hududda hunarmandchilikning turli sohalari ravnaq topgan bo'lib, asosan gilamchilik, kigiz tayyorlash, kosibkorlik kabi turlari kundalik turmush tarziga aylangan va keng taraqqiy etgan.

Kalit soʻzlar: Yuz (juz), qo'ng'iroq, mang'it, saroy, to'qimachilik, to'quv dastgohlari, gilam, kigiz.

O'zbek xalqi qadimdan kosib-hunarmand bo'lgan. Yurtimizda hunarmandchilik qadimdan taraqqiy topgan, turli bejirim buyumlar yasash, kundalik hayotda asqotadigan jihozlar tayyorlash, shu orqali o'z mehnati bilan odamlarga naf keltirish qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Olim Iso Jabborovning qayd etishicha: "O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar - bu erda hunarmandchilik va uy-ro'zg'or kosiblari, transport vositalari va savdo-sotiq ikki ming yillar muqaddam keng tarqalganligi va rivojlanganligini isbotladi. Bu davrda shahar madaniyati paydo bo'lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan. Shaharlar o'sib, savdo-sotiq rivojlangan. Butun mintaqada yirik shaharlar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki siyosiy va madaniy markazlarga aylana boshlangan.

IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng miqyosda rivojlanib, O'rta Osiyoning, shu jumladan, o'zbek elining ham chet ellar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari avj oladi. Mahalliy hunarmandchilik xalq xo'jaligiga zarur mahsulotlar ishlab chiqarib texnik va badiiy jihatdan yuksak darajaga ko'tariladi. O'zbek xonliklari davrida poytaxtlarda zodagonlar, boy-to'ralar va hokimlar ehtiyojlarini qondiradigan hashamatli binolar qurildi, turli zebu ziynatlar yaratadigan kasb-hunarlar rivojlandi, shahar va qishloq aholisiga zarur mahsulotlar etkazib beradigan har xil hunarmandchilik sohalari paydo bo'ladi"¹.

Surxondaryo vohasida qadimdan hunarmandchilik aholining xo'jalik hayotida muhim tarmoq sifatida kelgan. Bu erda tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar ham o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Shuning uchun ham hunarmandchilik bilan shug'ullanish darajasiga ko'ra vohani quyidagi qismlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

¹ Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati: O'quv qo'llanma.-T.: "O'qituvchi", 2003.-B.188-189.

1. Tog'li zonalar, shaharlar va aholi zich yashaydigan qishloqlarda hunarmandchilikka ixtisoslashuv kuchayib borgan.
2. Daryolarning yuqori va o'rta oqimi hududlarida uy-ro'zg'or hunarmandchiligi yaxshi yo'lga qo'yilgan.
3. Dasht oldi va keng dasht hududlarida aholi o'rtasida uy-ro'zg'or uchun oilaviy mahsulot ishlab chiqarish shakllari rivojlanib borgan.

Vohada hunarmandchilik sohalari va turlari ko'proq tog' oldi va Surxondaryo hamda Sherobod daryolarining yuqori va o'rta oqimlarida yaxshi xaridorgir bo'lib, bu mahsulotni ko'proq sotish va buyurtma uchun mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Ayniqsa, dasht oldi va dasht hududlarida uy-ro'zg'or hunarmandchiligiga xos ishlab chiqarish shakllari ko'proq taraqqiy etib borgan². Hunarmandchilik asosan yirik shaharlar bilan bir qatorda yirik qishloqlarda ham keng tarqalib bordi. Hunarmandchilikning barcha sohalarida o'z kasb uyushmalari mavjud bo'lib, ular oqsoqollar tomonidan boshqarilgan va barcha ishlab chiqarish jarayoni nazorat qilingan. Chetdan shogird yollash kam uchraydigan holat bo'lib, hunarmandchilik sirlari asosan, otadan o'g'ilga meros sifatida qoldirilgan. Hunarmandchilikdagi etakchi tarmoq to'qimachilik bo'lgan. Bunga sabab bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi mahsulotlarga talab kuchli bo'lsa, ikkinchi tomondan to'qimachilik uchun zarur bo'lgan xomashyolarning mahalliy ekanligi va etarli bo'lganligi edi³.

O'rta Osiyo xonliklarida mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarni imkoniyat darajasida ta'minlagan bo'lsa-da, ammo ularning yashash sharoiti og'ir ahvolda bo'lgan. Buning sababi amirlikda va xonliklarda hunarmandchilikning rivojlanishi uchun moddiy jihatdan amaliy yordam berilmagan.

Buxoro amirligidagi shaharlar ayrim hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishi bilan ajralib turgan. Masalan, Sherobod shahri kulolchilik mahsulotlari, Boysun shahri esa temir buyumlari va teri mahsulotlariga qayta ishlov berishi, Denov shahri esa zebo-ziynat buyumlarini tayyorlashi orqali o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. XIX asr o'rtalarida Sherobod bekligidan 1000000 tanga, Denov bekligidan 75000 tanga zakot olinib, ushbu soliqning ma'lum qismi hunarmandlarga tegishlidir⁴.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, o'tmishda o'troq o'zbeklar nafaqat qo'shni ko'chmanchi elatlar mahsulotini iste'mol (xarid) qiluvchilar, balki ular uchun zarur hunarmandchilik mahsulotlarini etkazib beruvchilar sifatida ham namoyon bo'lgan. Shuning uchun mahalliy ustalar ko'plab teri va jundan, yog'och va metallardan, paxta va ipakdan turli

² Кармышева Б.Х. О торговле в восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. В связи с хозяйственной специализацией. Товарно-денежные отношения на ближнем в Среднем Востоке в эпоху средневековья. -М.: Наука, 1979.- С.117.

³ N.Oblomurodov, A.Hazratqulov, F.Tolipov, N.Tursunov. O'zbekiston tarixi. -T.: "Fan va texnologiya", 2011. -B. -170-171.

⁴ O'z MA I-1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1154-ish, 3-varaq.

buyumlar, kiyim-kechaklarni ishlab chiqib bozorlarda sotganlar. O'rta asr hunarmandlarining yana bir xususiyati ularning muayyan ijtimoiy tashkilotlarga ega bo'lishida edi. Bu o'ziga xos jamoachilik an'alariga tayangan maxsus uyushmalarga birikish edi. Asli mazkur uyushmalar hunarmandchilik texnikasi va ishlab chiqarish xarakteri bilan bog'liq va o'z hamkasblari manfaatini qo'riqlash maqsadida tashkil topgan sex tuzumi shaklidagi tashkilotlardir⁵.

O'troq aholi, ya'ni chig'atoylar, tog'chilar hunarmandchilikning temirchilik, duradgorlik, to'qimachilik, tikuvchilik, kulolchilik, tegirmonchilik, juvozkashlik, kashtachilik, do'ppido'zlik, etikdo'zlik, charmgarlik kabi turli sohalari bilan shug'ullangan bo'lsa, yarim o'troq aholi qo'ng'irotlar, juzlar, mang'itlar, saroylar asosan gilam to'qish, o'tovlar uchun kerakli anjomlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'lishgan⁶. O'troq aholi va shahar atrofida yashovchi yarim o'troq aholi bilan tovar ayirboshlash katta miqdordagi hunarmandchilik buyumlarining qo'y, echki, qoramol kabi chorvalar bilan birgalikda, to'qimachilik, ko'nychilik sohalariga zarur xom ashyolari- jun, teri va turli-tuman gilamdo'zlik mahsulotlarini ham ayirboshlagan. Shuningdek, dehqonchilik bilan shug'ullangan aholi o'zlari etishtirgan poliz, sabzavot kabi turli-xil dehqonchilik mahsulotlarini hunarmandchilik mahsulotlariga tovar ko'rinishida ayirboshlaganlar⁷.

O'zbek hunarmandchiligining yana bir xususiyati uning ko'p sohasining bevosita uy-ro'zg'or xo'jaligi bilan bog'liqligi edi. Ko'p hunarmandlar asosiy kasbidan tashqari, ayniqsa, qishloq sharoitida dehqonchilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Ularning ko'pchilik qismi o'z mahsulotlarini yaqin bozorga chiqaribgina qolmay, ishlab chiqilgan mahsulotiga qarab, natura bilan haq olganlar, ya'ni g'alla yoki mol bilan ayirboshlaganlar. Bunday holat qishloq jamoachiligi an'analari bilan bog'liq bo'lib, dastlab hamqishloqlar ehtiyojlariga bo'ysungan. Uy hunarmandchiligi ip yigirish, to'qish, kigiz bosish kabi kasblar bilan shug'ullanilgan. To'qimachilikda gilam va palos birinchi o'rinda turar edi⁸.

Markaziy Osiyoda XIX asrning boshlarida uy hunarmandchiligiga gilamdo'zlik kirib, asosan ro'zg'orning muhim bezak va ehtiyoji uchun xizmat qilgan. Ayollar tomonidan gilamning to'qilishi, bu uy hunarmandchiligi sifatida qadrlangan. Dastlab gilam to'qish bilan ayollar mashg'ul bo'lgan bo'lsa, keyinchalik bu juda murakkab ish bo'lganligi sababli to'quv dastgohlarida erkaklar ham shug'ullanishgan. Mohir gilamdo'z usta gilamni to'qishni 10-15 yilda o'rgangan.

Surxondaryo vohasida qizlar 5-7 yoshdan charxda ip yigirishni boshlab, 10-12 yoshidan gilam to'qishda ustaga shogird bo'lib tushgan. Bu jarayon uzoq yillarni talab qilgan. Iplarni

⁵ Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati.-B.189.

⁶ Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi.-B.61-62.

⁷ Dala yozuvlari. 2020 yil Surxondaryo viloyati Sherobod, Denov, Boysun tumanlari.

⁸ Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati.-B.189.

bo'yash ishlarida yosh shogirdlar ishtirok etishmaganlar. Buning sababi shuki, gilam iplarini bo'yash sirlarini tajribali usta gilamdo'zlar bajarishgan.

O'rta Osiyoda gilam to'qish san'ati XI-XIV asrlardan rivojlana boshlagan. O'tmishda gilamdo'zlar gilamni er bag'irlab yoyib to'shagan holatda o'rnatilgan pastak va sodda dastgohlarda to'qishgan. Bu holat keyinchalik to'quv dastgohlarining mukammallashib borishi bilan ushbu dastgohlarda gilam to'quvchi ayollar yonma-yon jamoa holida o'tirishib, ommaviy birdaniga to'qiydigan keng g'altakli turlarini ham yasashgan. Oltinsoy tumanining Jobu qishlog'ida gilamchilik ancha yaxshi rivojlangan bo'lib, to'quv dastgohlarini bir nechta to'quvchi yonma-yon o'tirib to'qisa bo'ladigan keng g'altak xillaridan foydalanishgan⁹.

Ilmiy manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, O'rta Osiyoda gilamdo'zlik XIV asrning ikkinchi yarmidan keng hududlarda rivojlana boshlagan. Bu kasb sifatida shakllanib, gilam to'qish ustaxonalarida mahalliy ustalar bilan birga xorijiy ustalarning ham mehnat qilganligini aytib o'tish mumkin.

O'tmishda yarimo'troq va ko'chmanchi xalqlar asosan o'tovlarda yashashib, o'tovning jihozlari asosan kigizlardan iborat bo'lgan. Chorvador aholi chorvadan olingan junlarning oq rangdagisini ajratib o'tovning ustki qismini yopishgan, qora, qizil, simobiy ranglarni esa ustki tashqi qismlariga ishlatishgan. O'tovning ichki qismida, erga qora rangdan gullarining esa qizil, oq, sariq ranglaridagi geometrik shakllarni solib ishlangan kigiz to'shalgan. Mahalliy aholi tomonidan gilamchilikning boshlang'ich manbasi va asosi namatdan boshlangandir. Kigizlarni ishlab chiqarish usuliga qarab 2 xil shaklda bo'ladi, ya'ni birinchisi gulsiz oddiy kigizlar, ikkinchisi gulli kigizlar hisoblanadi. Kigiz takiyamat deb atalib, uning "tug'donagul", "taqirgul", "tug'ma baqa", "gajakgul", "gultaylama", "qirqdonagul", "shoxmola", "qirdo'ngil" hamda "oltido'ngil" kabi turlari keng tarqalgan¹⁰. Xulosa qilib qayd etish keraki, moddiy madaniyatning muhim komponenti bo'lgan an'anaviy turarjoylar, kiyim-kechaklar va taomlarida aynan etnik guruhlarining xo'jalik-madaniy an'alaridan kelib chiqqan holda ko'plab umumiyliklarga ega bo'lishi bilan birga o'ziga xos tafovutlarga ega edi. Masalan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi etnik guruhlarda bu komponentlar bir qadar konservativ xarakterda bo'lib, tashqi etnik omillar ta'sirida o'zgarishga juda kam uchraydi hamda inoetnik ta'sirlarni ham o'ziga singdirib yuborgan. Chunki, o'troq aholining moddiy madaniyati asrlar davomida shakllangan tarixiy mahalliy o'zak madaniyatga tayanadi. Mahalliy o'troq aholining uy-joylari intereri, kiyim-kechaklar tayyorlash va tanlashdagi tajribasi va estetik didi, taom tayyorlashdagi boy pazandachilik an'analari qadimiy o'troq madaniyatga asoslangan edi.

⁹ Dala yozuvlari. 2020 yil Oltinsoy tumani Jobu qishlog'i.

¹⁰ Tursunov S., va boshq. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2013. –B. 229.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati: O'quv qo'llanma.-T.: "O'qituvchi", 2003.-B.188-189.
2. Кармышева Б.Х. О торговле в восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. В связи с хозяйственной специализацией. Товарно-денежные отношения на ближнем в Среднем Востоке в эпоху средневековья.-М.: Наука, 1979.-С.117.\
3. N.Oblomurodov, A.Hazratqulov, F.Tolipov, N.Tursunov. O'zbekiston tarixi. -T.: "Fan va texnologiya", 2011. -B. -170-171.
4. O'z MA I-1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1154-ish, 3-varaq.
5. Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi etnografiyasi.-B.61-62.
6. Dala yozuvlari. 2020 yil Surxondaryo viloyati Sherobod, Denov, Boysun tumanlari.
7. Dala yozuvlari. 2020 yil Oltinsoy tumani Jobu qishlog'i.
8. Tursunov S., va boshq. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2013. -B. 229